

**Mamanazarova Sadiya Mamayusupovna  
JDPU 2-oliy boshlang’ich ta’lim yo’nalishi III-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang’ich sinflarda bolalarning o’z fikrini erkin ifodalashi va mustaqil bola o’zining fikrini yozma yoki og’zaki ifodalash ko’nikmasini rivojlantirishga boshlang’ich sinflardan boshlab e’tibor qaratish muhimligi haqida.

**Kalit so’zlar:** Erkin fikrlash, mustaqil yozma va og’zaki fikrlash, tashabbuskorlik, tanqidiylik.

Boshlang’ich sinflarda bolani o’qish darslarida faqat o’zi yaxshi ko’radigan va uni qiziqtiradigan masalalar haqida fikrlashga va yozishga undash lozim. Bola uchun o’zi yaxshi bilmagan va o’ylab ko’rmagan mavzu haqida yozish murakkablik tug’diradi. Agar bunday vazifa bersangiz bolada yuzakilikni keltirib chiqaradi yoki ko’chirishga majbur bo’ladi.

Bolada iste’dodli va uyg’oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo atrof-muhitga , tabiat olamiga, hayvonot dunyosiga va tabobat olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg’otish, har bir narsaning mohiyatini anglashga yo’naltirish kerak bo’ladi.

Bola asarga yangicha yondasha bilish kerak. Bu esa albatta boshlang’ich sinf o’qituvchisining bilim saviyasi va pedagogik mahoratiga bog’liq. Shundagina bolani kichik yoshidan narsa va hodisalarni va insonlar haqida mustaqil fikri nuqtai nazari, shaxsiy fikri rivojlanib boradi. Shundan ma’lumki, bola o’zgalarning tashqaridan berilgan ko’rsatmalari mahsuli emas balki kichik yosh bolaning shaxsiy fikri, mustaqil o’ylashi va bir qarorga kelishidir. O’qituvchi boshlang’ich sinf o’quvchilarini tortinchoq bo’lishiga, fikrini erkin aytmay , ochiq muloqotdan o’zini tortishiga, dilida saqlab qolishiga umuman yo’l qo’ymasligi kerak. Yosh bolalar tafakkurini, ongini o’stirish uchun ularni ijod qilishga undovchi kerakli hayotiy tushunchalar va zaruriy kitoblar bilan ta’minlab, nazoratga olib borish kerak. Unga yomon muomala qilmasdan, balki erkinlik berish kerak. Har xil katta mavzularni ko’rsating va tanlash ixtiyorini o’ziga bering. Qiziqtirishning yana bir usuli tengdoshlarining ishlarini ko’rsatishdir.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining bayonlarini tekshirayotganda xatining sifatiga, imloviy xatolariga va uning mazmuniga qarab bolaga tanbeh bermasdan to’g’ri yo’llarini ko’rsatish kerak. Shundagina boshlang’ich sinf o’quvchilarining mustaqil og’zaki va yozma fikrlashlarini rivojlantirish tez va oson shakllanib boradi. O’quvchida ko’nikmani shakllantirib borish, mehnatga qiziqtirish, odob-axloqlarini ham me’yorida bo’lishlarini ta’kidlab borish lozim. Shu bilan birgalikda bu mehnat bolaning yoshiga, o’zlashtirishiga va bajarish unga zavq bag’ishlashi va bolada qiziqish ortishi lozim. Bolaga bo’lgan talabchanlik va mas’uliyat uni rivojlantiradi. Bolada shaxsiy fikrini ifodalash ko’nikmasini rivojlantirishga boshlang’ich sinflardan boshlab e’tibor berish kerak. Boshlang’ich sinflarda diktant va bayonlarni juda yaxshi yozgan o’quvchilar yuqori sinfga o’tganda ham insho yoki bayonlar erkin mavzularda yozganda qiynalib qoladilar. Bundan ko’rinib turibdiki, ba’zi o’quvchilar o’z fikrini emas, balki o’zgadan eshitganlarini yaxshi eslab qolishi orqali aytib beradi yoki o’qituvchisi tushuntirganini mexanik yodlab qoladi. Bolani kichik yoshidan,

ya’ni erkin, uyalmaydigan davridan mustaqil fikrlashga o’rgatish lozim. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining faqat o’qishi bilan emas balki ongli, ifodali o’qishi, o’rganganlarini va bilganlarini og’zak va yozma ravishda ifodalashi kerak.

O’qituvchi o’qish darslarida asosiy ishi asarni o’qish, matn haqida o’quvchilar bian suhbatlashish va uni tahlil qilish kerak.

O’quvchilar badiiy asar orqali hayotga yaqin qiziqarli voqealarni, qiziqarli masalalarni tez o’zlashtirib boradi. Asta sekinlik bilan o’quvchi mantiqiy asoslar va xulosalarni o’rganib o’zi uchun mavhum bo’lgan fikrlarni ham ilg’ay boshlaydi. Ulardan ham o’zi uchun kerakli xulosalarni chiqaradi.

Sinfda o’quvchilar birgalikda badiiy asarni o’rtoqlari bilan tahlil qilishlari va o’z munosabatlarini bildirishlari kerak. Bu esa o’quvchilarni biror ishga yuzaki qaramaslikka va yaxshi o’rganmay, aniq asoslar bo’lmay turib fikr bildirmasligini o’rgatadi. Tanqid barcha ma’lumotlar asosida tahliliy muhokama qilishdir. Bolani tahlil qilishga o’rgatish kerak. Bu esa uni jiddiy fikrlashga, mulohaza yuritishga undaydi. Har bir bola o’z tasavvuri, tuyg’u va tafakkuri, xotirasi kuchi bilan asar timsollarini o’rganad va o’ziga kerakli xulosa chiqaradi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga o’qituvchisi badiiy asarlar o’qishga o’rgatish va shular yordamida bolani mustaqil fikrlashga undaydi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ota-onalari ham kitob o’qib berishlari lozimligini larga tushintiirishlari kerak. Kerak bo’lsa bu haqida ota-onalar bilan yig’ilish o’tkazib, farzandlariga o’qib berishlari zarur bo’lgan asoslar materiallarini namuna ko’rsatib, maktab kutubxonasidan ijaraga yoki internetdan xabardor qilsa maqsadga muvofiq. O’qigan materiallarini muddatiini belgilash va ota-onasini ham xabardor qilish kerak va o’qigan asariga o’z munosabatini bildirishini ham ta’kidlash lozim. Ongilik va faollik tamoyili ta’lim jarayonida o’quvchilarning passiv bo’lib, materialni tushunmay mexanik ravishda quruq yodlashi emas, balki bilim va malakalarini faol ravishda chuqur va asosli bilim olishi zarur. Ta’limda ko’rsatmalikdan foydalanish Komenskiyning fikricha ko’rsatmalik tamoyili ko’rsatib o’tish usuli emas, balki barcha sezgi organlari narsalar va hodisalarini eng ravshan anglab, asosli mustahkam puxta o’zlashtirib olishga jalb qilish vositasidir deb ta’kidlab o’tgan.

O’quvchilarni kitobga qiziqtirishni yana bir usuli ularni rag’batlantirish kerak. O’quvchi qancha o’qituvchi tomonidan yoki uning ota-onasi yoki uning o’rnini bosuvchi yaqinlari bobosi, buvisi tomonidan kitoblar bilan rag’batlantirilsa, shuncha o’ziga bo’lgan ishonch ortadi va ko’proq harakat qilib teran fikrlashga, masalalarga o’z fikrini, munosabatini to’g’ri va aniq ko’rsata oladi. Va bu maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday yoshlarni tarbiyalash ota-onalar va o’qituvchilarning maqsad va vazifasidir.

### ZARURIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” T. “O’ZBEKISTON” 2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. T.2017.
3. Pedagogika nazariyasi tarixi. Gulchehra Izbulayeva
4. Oliy ta’lim me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami.
5. O’zbek pedagogikasi tarixi. T.: “O’QITUVCHI” 1997.

6. Psixologiya. B. Karimova 2007.